
Jurnalistlarga yuksak e`tibor va rag`bat

Marg`ilon shahridagi "Ijodkorlar bog'i" ma`rifiy majmuasida 27 iyun - Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuniga bag`ishlangan tantanali tadbir o`tkazildi. Kechaga o`zbek jurnalistikasining taniqli vakillari, viloyatimiz ommaviy axborot vositalarida faoliyat ko`rsatayotgan jurnalistlar, matbuotimiz faxriylari va yosh ijodkorlar taklif etildilar.

Qalam ahliga har tomonlama e`tibor ko`rsatish, ularning ezgu ishlarini sharaflash maqsadida tashkil etilgan tadbir "Ijodkorlar bog'i" markazida qad rostlagan O`zbekiston xalq shoiri, O`zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov haykali poyiga gullar qo`yish bilan boshlandi.

Tantana ishtirokchilari Erkin Vohidov memorial muzeyiga tashrif buyurishib, shoir hayoti va faoliyatini aks ettirgan eksponatlar bilan yaqindan tanishdilar.

Erkin Vohidov nomidagi ijtimoiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatining uchrashuvlar zalida o`tkazilgan tantanali yig`ilish farg`onalik faol va izlanuvchan jurnalistlarga davlatimizning yuksak e`tibori va rag`batini aks ettirgan hayajonli daqiqalarni tuhfa etdi.

Yig`ilishni viloyat hokimining o`rinbosari, xotin-qizlar qo`mitasi raisi Sayyoraxon Alimova ochib, viloyatimiz jurnalistlarini kasb bayramlari bilan samimiy qutladi, ularga viloyat hokimining samimiy tabrigini etkazdi. Farg`ona jurnalistikasi rivojiga o`z hissasini qo`shib kelayotgan bir guruh jurnalistlar viloyat hokimining Faxriy yorlig'i va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandilar. Ular orasida "Farg`ona haqiqati" gazetasi muxbirlari SHerzod Qoraboev, Dilnavoz Qo`ldosheva, "Sadoi So`x" gazetasi muxbiri Bahriddin Tojiddinov, "Farg`ona ta`limi xabarlari" gazetasi bosh muharriri Asqarali Tursunov, Farg`ona viloyati teleradiokompaniyasi muharriri Nurbek Mirzaev, "Ruxsor" teleradiokanali operatori Abdullajon Rashidov, "Beshariq tongi" gazetasi bosh muharriri Sobirjon Temirov, "Tohir-Bag`dod" televideniyesi rahbari Tohirjon Hamroqulovlar bor.

O`zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi viloyat bo`limi raisi, O`zbekiston Respublikasida xizmat ko`rsatgan jurnalist Muhammadjon Obidov qalam ahlini qutlug` bayram bilan tabriklar ekan, o`tgan yillar davomida Farg`ona jurnalistikasi o`ziga xos rivojlanish pallasiga ko`tarilgani, bu boradagi respublika va xalqaro miqyosdagi hamkorlik ishlarining ezgu samaralari xususida gapirdi. Hayotning qaynoq nuqtalariga kirib borayotgan jurnalistlarni muhtaram Prezidentimizning ishonchi va e`tiboriga, ommaviy axborot vositalari xodimlari oldiga qo`ygan talablarga munosib bo`lishga undadi.

Bayram ishtirokchilari va ular orqali barcha farg`onalik jurnalistlarni O`zbekiston Milliy axborot agentligi rahbari Abdusaid Ko`chimov, AQSHdagi "Amerika ovozi" teleradiosi muxbiri Navbahor Imomova, O`zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya universiteti rektori Sherzodxon Quadratxo`jayevlar videotabrik orqali qutlashib, viloyatimiz ijodkorlarining milliy jurnalistikamiz rivojidagi alohida o`rnini e`tirof etishdi.

-Jurnalist ahli shuning uchun ham baxtliki, u hamisha odamlar orasida, xalq ichida yuradi, - dedi O`zbekiston Respublikasida xizmat ko`rsatgan madaniyat xodimi, taniqli jurnalist Sevra Tursunova. - Bugungi zamon jurnalisti esa har qachongidan-da tezkorlik, xolislik va haqqoniylikni o`z faoliyatining bosh mezoni deb bilib, qaynoq hayot bilan qadamba-qadam yashashi, ayniqsa, xalq qalbining aks-sadosini ommaviy axborot vositalarida bera olishi nihoyatda zarurdir. Bugungiday e`tirof va rag`batlar esa har bir ijodkorga qo`shqanot bo`ladi.

Turli sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarni keng ommaga etkazishda faollik ko`rsatgan bir guruh jurnalistlar O`zbekiston Milliy axborot agentligi matbuot va axborot boshqarmasi, "Nuroni" jamg`armasi, Ma`naviyat va ma`rifat markazi viloyat bo`limlari, viloyat prokuraturasi, ichki ishlar, soliq, xalq ta`limi boshqarmalari va boshqa hamkor tashkilotlar tomonidan taqdirlandilar.

"Yilning eng faol jurnalisti -2018" ko`rik-tanlovi g`olib va sovrindorlarini taqdirlash marosimi, ayniqsa, jo`shqin lahzalarga boy o`tdi. Tanlovning turli nominatsiyalari bo`yicha g`oliblari nomi e`lon qilindi.

"Eng yaxshi telejurnalistik ish uchun" nominatsiyasi bo`yicha Farg`ona viloyat teleradiokompaniyasi muharriri Muyassar Hamdamova, "Eng yaxshi radiojurnalistik ish uchun" nominatsiyasi bo`yicha "Ruxsor" teleradiokanali boshlovchisi Navro`z Magripov, "Bosma nashrlardagi eng yaxshi jurnalistik ish uchun" nominatsiyasi bo`yicha "Ferganskaya pravda" gazetasi muxbiri Tamara Toshmatova va "Internet jurnalistikasidagi eng yaxshi ish uchun" nominatsiyasi bo`yicha "Farg`ona haqiqati" gazetasi muxbiri SHohidbek Aslonovlar birinchi o`ringa munosib ko`rildilar.

Majmuadagi "Osh markazi"da to'kin dasturxon atrofida tashkil etilgan ijodiy guruh viloyatimiz taniqli san'at ustalari, umidli yosh xonandalar ishtirokida musiqiy dastur bilan yanada fayzli o'tdi.

Tantanali tadbirda qalam ahliga qaratilgan cheksiz mehr va ehtirom, yuksak e'tiroflar jurnalistlarga katta ijodiy quvvat va shijoat baxsh etibgina qolmasdan, ularni hamisha yangiliklarga intiluvchan, jamiyat hayotida peshqadamlar safida bo'lishga ruhlantirdi.



Dilnavoz Qo`ldasheva

2018-06-29 16:31:11